

## USTAMA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARNI TAQSIMLASHNING MAQSADI, ASOSIY MEZONLARI VA YONDASHUVLARI

*Samarqand iqtisodiyot va servis insituti  
Katta o'qituvchi Xudaynazarova Dilnoza  
BH-324 guruh talabasi Abdunazarov Samandar*

**Annotatsiya:** “Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning maqsadi, asosiy mezonlari va yondashuvlari” mavzusi korxonalarda mahsulot tannarxini to‘g‘ri aniqlash va xarajatlarni samarali boshqarish masalalarini yoritadi. Ushbu mavzuda ustama xarajatlarning mazmuni, ularni mahsulot yoki xizmat turlariga taqsimlashdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar hamda taqsimlashda qo‘llaniladigan mezonlar tahlil qilinadi. Shuningdek, an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar, jumladan, mehnat hajmi, mashina-soat usuli va faoliyatga asoslangan kalkulyatsiya usullarining afzalliklari hamda qo‘llash xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Mavzu korxonalarda moliyaviy natijalarni aniq baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Аннотация:** Тема «Цели, основные критерии и подходы к распределению накладных производственных расходов» освещает вопросы правильного определения себестоимости продукции и эффективного управления затратами на предприятиях. В данной теме анализируются сущность накладных расходов, основные цели их распределения между видами продукции или услуг, а также критерии, применяемые при распределении. Кроме того, рассматриваются традиционные и современные подходы, включая методы распределения на основе объёма труда, машино-часов и калькулирования по видам деятельности, их преимущества и особенности применения. Тема имеет важное значение для точной оценки финансовых результатов предприятий и принятия управленческих решений.

**Annotation:** The topic “Objectives, Main Criteria, and Approaches to the Allocation of Manufacturing Overhead Costs” highlights the issues of accurately determining product cost and effectively managing expenses in enterprises. This topic analyzes the essence of overhead costs, the main objectives of their allocation among different types of products or services, as well as the criteria used in the allocation process. In addition, both traditional and modern approaches are examined, including labor-based allocation, machine-hour methods, and activity-based costing methods, along with their advantages and application features. The topic is of great importance for the accurate assessment of enterprises’ financial results and for making effective managerial decisions.

**Kalit so'zlar:** Ustama, xo'jalik, xarajat, mahsulot, xizmat, tannarx, moliyaviy natija, qiymat, kalkulyatsiya.

**Ключевые слова:** накладные расходы, хозяйство, затраты, продукция, услуги, себестоимость, финансовый результат, стоимость, калькуляция.

**Keywords:** overhead costs, economy, expenses, product, services, cost price, financial result, value, calculation.

Ustama ishlab chiqarish xajatlarni taqsimlash korxonada muhim o'rin tutadi. U korxonada ishlab chiqarish jarayoniga bevosita bog'liq bo'lmagan, lekin mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xarajatlarni mahsulotlar yoki xizmatlar o'rtasida taqsimlash jarayonidir. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan 4-son BHMS asoida ham aynan shu takidlangan. Unga ko'ra ushbu xarajatlar mahsulotga to'g'ridan to'g'ri olib bormaydigan xarajatlardir. Ushbu xarajatlarga sex elektr energiyasi, sex ijarasi, asbob-uskunalar amortizatsiyasi, tamirlash xarajatlari, sex boshqaruv xodimlari ish haqi kiradi. Ushbu BHMS ga ko'ra ustama ishlab chiqarish xarajatlari ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi tur o'zgaruvchan ustama xarajatlar hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish hajmiga qarab o'zgaradi. Misol uchun, agar ishlab chiqarish hajmi oshsa ko'proq yordamchi materiallar va elektr energiyasi sarflanishi mumkin.

Ikkinchi tur doimiy ustama xarajatlar hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi. Ular ijara, amortizatsiya, mamuriy sex xarajatlari hisoblanadi. Aynan ishlab chiqarish hajmi qanchalik oshsa ham ushbu xarajatlar o'zgarmaydi.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash korxonalarda mahsulot tannarxini aniq hisoblash va moliyaviy natijalarni ishonchli aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. BHMS talablariga muvofiq ustama xarajatlar bevosita mahsulotga bog'liq bo'lmagan, biroq ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va boshqarish uchun zarur bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ularga ishlab chiqarish binolarini saqlash, amortizatsiya, elektr energiyasi, yordamchi xodimlar ish haqi va boshqa umumishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Mazkur xarajatlar mahsulot turlari o'rtasida asoslangan mezonlar orqali taqsimlanadi. Taqsimlashda mehnat haqi, mashina-soat, ishlab chiqarish hajmi yoki to'g'ridan to'g'ri xarajatlar summasi asos sifatida qo'llanilishi mumkin.

BHMSGa ko'ra, ustama xarajatlarni noto'g'ri taqsimlash mahsulot tannarxining asossiz oshishi yoki kamayishiga olib keladi. Bu esa korxonada foydasi, narx belgilash siyosati va boshqaruv qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli xarajatlarni adolatli va iqtisodiy mazmunga mos ravishda taqsimlash zarur hisoblanadi. Zamonaviy amaliyotda faoliyatga asoslangan kalkulyatsiya usuli keng qo'llanilib, u xarajatlarni yanada aniq hisoblash imkonini beradi. Natijada korxonada resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniga ega bo'ladi.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash korxonalarda mahsulot tannarxini aniq hisoblash va moliyaviy natijalarni ishonchli aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. BHMS talablariga muvofiq ustama xarajatlar bevosita mahsulotga bog'liq bo'lmagan, biroq ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va boshqarish uchun zarur bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ularga ishlab chiqarish binolarini saqlash, amortizatsiya, elektr energiyasi, yordamchi xodimlar ish haqi va boshqa umumishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Mazkur xarajatlar mahsulot turlari o'rtasida asoslangan mezonlar orqali taqsimlanadi. Taqsimlashda mehnat haqi, mashina-soat, ishlab chiqarish hajmi yoki to'g'ridan to'g'ri xarajatlar summasi asos sifatida qo'llanilishi mumkin.

BHMSga ko'ra, ustama xarajatlarni noto'g'ri taqsimlash mahsulot tannarxining asossiz oshishi yoki kamayishiga olib keladi. Bu esa korxonada foydasi, narx belgilash siyosati va boshqaruv qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli xarajatlarni adolatli va iqtisodiy mazmunga mos ravishda taqsimlash zarur hisoblanadi. Zamonaviy amaliyotda faoliyatga asoslangan kalkulyatsiya usuli keng qo'llanilib, u xarajatlarni yanada aniq hisoblash imkonini beradi. Natijada korxonada resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, ustama xarajatlarni to'g'ri hisobga olish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Korxonada rivojlanish uchun ko'plab yo'llar, usullar qollaydi. Har bir harajat korxonada balansida aks ettirilishi kerak. Shu sababli ustama ishlab chiqarish harajatlarini to'g'ri hisobda olib borish muhim hisoblanadi. Standartga ko'ra ustama xarajatlar mahsulotga oqilona va muntazam asosda taqsimlanishi kerak. Taqsimlash bazasi:

Ishchilar ish haqi

Mashina ish soati

Ish soati

Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi

Aynan shu ko'rsatkichlar taqsimlash bazasi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS).
3. Karimov A.A. — "Boshqaruv hisobi". Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Xasanov B., Hamdamov Sh. — "Moliyaviy va boshqaruv hisobi". Toshkent.
5. Gadoyev E.F. — "Korxonalarda xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish".
6. Abdulkarimov I.T. — "Buxgalteriya hisobi nazariyasi". Toshkent.
7. Internet manbalari va ilmiy maqolalar: iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi bo'yicha elektron resurslar.